



XALQ DEPUTATLARI YASHNOBOD TUMAN KENGASHINING QARORI

2024 - yil 23 - yanvar

II-95-5-14-203-K/24

Yashnobod tuman hokimligi

Yashnobod tumanida 2023-yil yakunlariga ko‘ra mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy byudjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta’minlash bo‘yicha Soliq va Moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PF-5283-son Farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-yanvardagi 43-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi 445-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining Yashnobod tumanida 2023-yil yakunlariga ko‘ra mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotini tinglab va muhokama qilib, Xalq deputatlari Yashnobod tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi A.Nazarovning Yashnobod tumanida 2023-yil yakunlariga ko‘ra mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-yanvardagi 43-sonli qarori ijrosi yuzasidan byudjetga to‘lovlar kelib tushishining ko‘rsatkich prognozlari bajarilishi hamda 2023-yil yillik qo‘srimcha daromadlar aniqlangani va undirilishi to‘g‘risidagi ma’lumot ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (L.Temirov), tuman Soliq inspeksiyasi (R.Ashirmatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Nazarov), tegishli korxona va

tashkilotlar bilan birgalikda:

tuman mahalliy byudjetining daromadlar bazasini kengaytirish hamda byudjetga boqimanda qarzdorliklarni bartaraf etish bo‘yicha tuman hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda zarur chora-tadbirlar ko‘rilishini;

Yashnobod tumani mahalliy byudjetining 2024-yil birinchi choragi uchun tasdiqlangan daromadlar rejasini barcha soliq turlari kesimida ortig‘i bilan bajarilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Nasretdinov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (L.Temirov) zimmasiga yuklatilsin.

**Халқ депутатлари Яшнобод
тумани Кенгаши раиси
Ўринбосари**



S.Nasretdinov

Xalq deputatlari Yashnobod tuman Kengashining
 2024-yil 23-yanvardagi
 II-95-5-14-203-K/24-son qaroriga
 1-ilova

**Yashnobod tumanida O'zbekiston Republikasi Vazirlar Mahkamsining 445-son qarori asosida soliq to'lovchilarni
 to'liq qamrab olish va tushumlar tushushini ta'minlash yuzasidan 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar to'grisida**

M A ' L U M O T

ming so'm

		Iqtisodiyot va moliya bo'limi, hamda tuman Soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikada aniqlangan holatlar										
T/r	Jami aniqlangan qo'shimcha daromadlar va tushumlar (ming so'm)	Jami soliq to'lovchilar son	Shu jumladan:								Aniqlangan holatlar bo'yicha DSI hamda boshqa tashkilotlar kiritilgan xatlar (taqdimnoma) soni	
			Mol-mulk solig'i		Yer solig'i		Yakka tartibdagи tadbirkorlar		Umumiyyovqatlanish Korxonalar		Boshqa faoliyat bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq summasi	
			soliq to'lovchisoni	Soliq summasi	soliq to'lovchisoni	Soliq summasi	Soni	Soliq summasi	Soni	Soliq summasi	Soni	Soliq summasi
1	4 456 540	3 821	1 730	469 130	520	451 894	163	119 700	57	137 000	1 351	3 278 816
												3